


“TASDIQLAYMAN”

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
boshqaruv raisining birinchi
o‘rinbosari v.v.b



T.Zaripov

21 ” 04 2022 y.

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJga qarashli Tyubegatan kaliy tuz konining shimoliy qismini o‘zlashtirish loyihasi uchun Atrof muhitga ta’sir ko‘rsatilishi to‘g‘risidagi bayonot loyihasini (ZVOS) ishlab chiqish bo‘yicha

Texnik topshiriq

MUNDARIJA:

1. Qo'llanilish sohasi.....3
2. Hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos..... 3
3. Hujjatning nomi.....3
4. Ishning maqsadi.....3
5. Ishlarni bajarishga qo'yiladigan asosiy talablar.....3
6. Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi
(ZVOS)tarkibi va sifatining talab va shartlarga muvofiqligi.....3
7. Hujjatni yetkazib berish muddati, miqdori va ko'rinishi, manzili.....3

1. Qo'llanilish sohasi.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJga qarashli Tyubegatan kaliy tuz koni.

2. Hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos.

- "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi nizomi;

3. Hujjatning nomi.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJga qarashli Tyubegatan kaliy tuz konining shimoliy qismini o'zlashtirish loyihasi uchun Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi (ZVOS).

4. Ishning maqsadi.

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJga qarashli Tyubegatan kaliy tuz konining shimoliy qismini o'zlashtirish loyihasining atrof muhitga ta'sirini o'rganish va davlat ekologik ekspertizadan o'tkazish.

5. Ishlarni bajarishga qo'yiladigan asosiy talablar.

- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining talablariga muvofiq zaruriy qo'shimchalar, grafik materiallar, jadvallar, hisob-kitoblar bilan tushuntirish xati sifatida Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasini (ZVOS) ishlab chiqish;
- Tyubegatan kaliy tuz konining shimoliy qismini o'zlashtirishning atrof muhitga ta'sirini o'rganish;
- Pudratchi tomonidan (ZVOS) ekologik loyiha xujjatini ekologik ekspertizaga taqdim qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-sonli qaroriga asosan "Jamoat eshituv qarori"ni tayyorlash va tegishli organlar bilan kelishish;

6. Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi (ZVOS) tarkibi va sifatining talab va shartlarga muvofiqligi.

- O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son farmoni;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi 541-son qarori;
- O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan boshqa huquqiy va me'yoriy hujjatlar;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida me'yoriy loyihalarni ishlab chiqishda zarur tajribaga ega malakali mutaxassislar;
- Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasini (ZVOS) ishlab chiqish uchun normativ-huquqiy baza va dasturiy ta'minot mavjudligi;
- Pudratchining so'nggi 3 yil ichida tasdiqlangan hujjatlar bilan Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasini (ZVOS) ishlab chiqish tajribasi;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish va sanitariya epidemiologiya xizmati sohasidagi vakolatli organlar bilan kelishish.

7. Hujjatni yetkazib berish muddati, miqdori va ko'rinishi, manzili.

Miqdori: bir dona A4 formatdagi kitob shaklida (muqovasi qattiq rangli) va elektron shaklda;

Yetkazib berish muddati: shartnoma kuchga kirgan kundan 10 (o'n) kun;

Yetkazib berish manzili (adres): "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ (O'zbekiston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, Beshbuloq MFY);

Ishlab chiqdi:

Atrof-muhitni muhofaza
qilish bo'limi boshlig'i



T. Jumanov

Kelishildi:

SR va BR bo'limi boshlig'i



S. Xolto'raev

TKM boshlig'i v.v.b

O. Safarov